

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-1



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№ SI-1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-1>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабилова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)

**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Фофуров Низомжон Октябрович**  
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Сабиров Алишер Сабирович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам (США)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Муйдинова Моҳира Муқимжоновна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ходжаев Собир Джумаевич**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)  
**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Акрамов Хусан Фуркатович**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**  
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харасович**  
кандидат политических наук, и.о. доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Сеитов Азамат</b> РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ПРОШЛОГО К ПЕРСПЕКТИВНОМУ БУДУЩЕМУ.....	5
<b>2. Sabirova Umida</b> SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
<b>3. Алексеева Виктория</b> КОНЦЕПЦИИ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНАЛИЗЕ ДИНАМИКИ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	21
<b>4. Kayumov Kaxramon</b> KICHIK SHAHARLARNI ILMIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHATLARI.....	30
<b>5. Alikariyeva A'loxon</b> TA'LIM SIFATI BOShQARUVIGA NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	36
<b>6. Mannanova Nilufar</b> DAVLAT XIZMATCHILARINI MERITOKRATIK YONDOSHUV ASOSIDA TANLASH – JAMIYATDA ADOLAT TAMOIYILI QAROR TOPISHINING MUHIM MASALASI SIFATIDA.....	44
<b>7. Mo'minov Zokirjon</b> IJTIMOIY MOBILLIK OMILINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI.....	51
<b>8. Jiyanmuratova Gulnoz</b> YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR.....	58
<b>9. Сеитов Мансур</b> МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В ФОРМИРОВАНИИ ЖИЗНЕННЫХ ПОЗИЦИЙ МОЛОДЕЖИ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ.....	66
<b>10. Узакова Зарина</b> СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ: ОТ СОЦИАЛЬНОЙ К БИОПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ.....	74
<b>11. Ziyayeva Xolida</b> AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHGA QARATILGAN NAZARIYALAR TAHLILI.....	80
<b>12. Imomova Nozimaxon</b> MEHNAT MIGRATSIIYASINI VUJUDGA KELISHI VA TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIIY OMILLARI.....	88
<b>13. Shokirov Shaxrizod</b> HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLIHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH.....	93

<b>14. Ixtiyarov Farxod</b> INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOYIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT OMILI.....	102
<b>15. Akramov Xasan</b> YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	108
<b>16. Kalanova Sabohat</b> JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOYIY HODISA SIFATIDA.....	117
<b>17. Axrorov Zohidjon</b> O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOYIY SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA.....	126
<b>18. Xujanov Zafar</b> KAMBAG‘ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI.....	132
<b>19. Turanazarov Umid</b> KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI.....	138
<b>20. Kaxarova Nilufar</b> SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.....	145
<b>21. Хакимова Анора</b> ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	154
<b>22. A‘zamxonov Saidabzalxon</b> TALABALAR MUSTAQIL TA‘LIM OLIHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	163
<b>23. Ro‘zimatov Elbek</b> VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI.....	170
<b>24. Masharipov Baxtiyar</b> SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	177
<b>25. Muzaffarov San‘atbek</b> VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI.....	185
<b>26. Yo‘ldashev Shoxrux</b> YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA.....	190

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ


## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Ro'zimatov Elbek,**

O'zMU Ijtimoiy ish kafedrası o'qituvchisi

e-mail: elbekruzimatov5255@gmail.com

### VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10800162>

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada volontyorlik harakatining shaxslararo munosabatlarda va jamiyat hayotida egallagan o'rni, volontyorlik harakatlarining muhim xususiyatlari, volontyorlik tushunchasi, volontyolik faoliyatining asosiy tamoyillari, volontyorlik harakatida ishtirok etish uchun yosh chegaralari hamda volontyorlik turlari, insonlarning vo'lontyorlik harakatlarida ishtirok yuzasidan dastlabki nuqtai nazarlar va nazariyalar tahlil etilgan. Volontyorlik faoliyatining maqsad va vazifalarini tahlil qilgan holda, volontyorlik faoliyatining maqsadlari jismoniy va yuridik shaxslarga, umuman jamiyatga yordam ko'rsatish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirlarda ularni tashkil etuvchilarning roziligi bilan ishtirok etish, jamiyatda fuqarolik nuqtai nazarini, o'zini o'zi tashkil etishni, ijtimoiy mas'uliyat, birdamlik, o'zaro yordam berish va rahm-shafqat tuyg'ularini shakllantirishdan iboratligi vaziflari esa qonunchilikda belgilangan tartibda atroflicha yoritilgan. Volontyorlik faoliyatining tashkilotlar va insonlarga yordam ko'rsatish turlari hamda qator olimlarning volontyorlik harakatlarini o'rganishga qaratilgan qarashlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** volontyorlik, kirishimlilik, vijdonlilik, ijtimoiy faollik, altruizm, tolerantlik, empatiya, mas'uliyat, kommunikativlik, hayrixohlik, ijtimoiy ta'sirchanlik, profilaktik volontyorlik, donorlik.

**Рўзиматов Элбек,**

Преподаватель кафедры социальной работы НУУз

e-mail: elbekruzimatov5255@gmail.com

### ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВОЛОНТЕРСКОГО ДВИЖЕНИЯ

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализированы роль волонтерского движения в межличностных отношениях и жизни общества, существенные особенности волонтерского движения, понятие волонтерства, основные принципы волонтерской деятельности, возрастные рамки для участия в волонтерском движении и виды волонтерства, исходные точки зрения и теории участия людей в волонтерском движении. Анализируя цели и задачи волонтерской деятельности, можно сделать вывод, что целями волонтерской деятельности являются оказание помощи физическим и юридическим лицам, обществу в целом, охрана окружающей среды, участие в общественно значимых мероприятиях с согласия их организаторов, воспитание в обществе гражданского

мировоззрения, самоорганизации, социальной ответственности, солидарности, взаимопомощи. Задачи, заключающиеся в формировании чувства сострадания, подробно описаны в порядке, установленном законодательством. Проанализированы виды волонтерской деятельности организаций и оказания помощи людям, а также взгляды ряда ученых на изучение волонтерской деятельности.

**Ключевые слова:** концепция волонтерства, доступность, добросовестность, социальная активность, альтруизм, терпимость и терпение, сочувствие, ответственность, коммуникативность, фанатизм, социальная отзывчивость, профилактическое волонтерство, донорство.

**Ro‘zimatov Elbek,**

Teacher of the Department of Social Work of NUUZ

e-mail: elbekruzimatov5255@gmail.com

## THEORETICAL ANALYSIS OF VOLONTEUR ACTION

### ABSTRACT

This article analyzes the role of the volunteer movement in interpersonal relationships and in the life of society, important features of the volunteer movement, the concept of volonteurism, the basic principles of volonteurism activity, age limits for participation in the volonteur movement and types of volonteurism, initial points of view and theories on participation of people in volonteurism movements. Analyzing the goals and objectives of volunteer activities, the tasks of volunteer activities are to provide assistance to individuals and legal entities, society as a whole, to protect the environment, to participate in socially significant activities with the consent of their organizers, to form a civil point of view, self-organization in society, social responsibility, solidarity, mutual assistance and feelings of compassion. The types of volunteer activities for organizations and human assistance and the views of a number of scientists aimed at studying volunteer actions have been analyzed.

**Keywords:** the concept of volonteurism, accessibility, conscientiousness, social activism, altruism, tolerance and patience, empathy, responsibility, communicativeness, admiration, social interaction, preventive volonteurism, donation.

### KIRISH

Yon-atrofdagilarga mehr-shafqatli, jon kuyar bo‘lish, ko‘makka muhtojlarga yordam qo‘lini cho‘zish, da‘rdiga darmon bo‘lish, og‘irini yengil qilish, el kuniga yaraydigan inson, mahalla-ko‘y va jamiyat uchun kerakli shaxs bo‘lish bizga ota bobolarimizdan merosdir. Biz bugun Prezidentimiz rahbarligida mustaqil, insonparvarlik, xaliqparvarlik xarakteriga ega bo‘lgan davlatni, yuksak axloqli fuqarolik jamiyat yaratmoqdamiz. Volontyorlik harakati uzoq tarixga ega. Uning kelib chiqishi haqida bir qator manbalarda turlicha faktlar keltirilgan. Ularga XVII asrda fransuzlarda “volontaire”, italiyanlarda “volontario”, nemislarda “volontair” degan bir xil ma’noni anglatuvchi tushunchalar paydo bo‘lgan. Bugungi kunda volontyorlik harakatining G‘arb modeli dunyo bo‘ylab keng rivojlangan.

1990-yilda Xalqaro Volontyorlar Assotsiatsiyasining XI Kongresida “Butun dunyo volontyorlar deklaratsiyasi” qabul qilindi. 1996-yil Yevropa Ittifoqi tomonidan “Yevropa volontyorlik xizmati” (EVS) tashkil etildi. Yevropa Ittifoqi Komissiyasi tomonidan volontyorlik va volontyorlar faoliyatining davlat boshqaruvidagi muhim ahamiyatini inobatga olib, 2011-yilni rasman “Yevropada volontyorlar yili” deb nomlandi.

BMT tomonidan 2001-yil “Xalqaro volontyorlar yili” deb e’lon qilindi. Volontyorlardan tuzilgan guruhlar pandemiya sabab tashkil etilgan markazlarda, “Xavsiz yordam” aksiyasi, “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakati, “Sardoba sari saxovat karvoni” kabi xariya aksiyalarida faol ishtirok etib, xalqimiz dardiga malham bo‘lishdi.

Mamlakatimizda birinchi bor o‘tkazilgan O‘zbekiston yoshlari forumida Prezidentimiz yoshlarimizning bu tashabbuslari va faolligini e’tirof etgan holda aytgan ediki: “El boshiga ish tushkanda, yoshlarimiz kerak bo‘lsa aziz jonlarini garovga qo‘yib xalqimiz dardiga darmon bo‘ldilar.

O‘zbekiston bo‘yab 14 ta hududda volontyorlar maktablari ochildi. Endilikda volontyorlar uchun har bir mintaqada moddiy-texnik bazasi bilan jihozlangan alohida ofis boladi. Shuningdek, universitetlar huzurida 30 ta shunday markazlarni yaratish ishlari davom etmoqda. Bu talabalar bo‘sh vaqtida, darslar oralig‘ida yoki yakunida yig‘ilishib, o‘zlaring loyihalarini muhokama qilishlari uchun xizmat qiladi [1]. Volontyorlik harakati uni amalga oshirgan insonga ham undan ko‘mak olgan insonga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Birinchidan, volontyor sifatida boshqalarga ko‘mak bergan inson ma‘naviy jihatdan o‘z-o‘zini tarbiyalaydi, o‘z ishidan ruhiy kuch quvvat oladi, zavqlanadi, insonligini his qiladi. Bu faoliyatda bir marta ishtirok etgan insonning hayotga nisbatan qarashi butunlay ijobiy tomonga o‘zgaradi.

Ikkinchidan, volontyorlik harakati ko‘magidan foydalangan inson o‘zining boshqalar uchun kerakligini his qiladi, motivatsiya oladi, hayotga intilishi oshadi, o‘ziga imkoniyatlar ochadi va rivojlanadi.

### **METODOLOGIYA**

“Volontyorlik” so‘zining o‘zi lotin tilidagi voluntarius (ko‘ngilli) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, jamiyat rivoji uchun beg‘araz jismoniy mehnat kabi, pul ko‘rinishidagi mukofotni kutmasdan turli xizmatlar ko‘rsatish va ma‘naviy ko‘mak berish kabilarni o‘z ichiga oluvchi tushunchalarning keng doirasini qamrab oladi. Biroq volontyorlikni nafaqat pul ko‘rinishidagi mukofotdan voz kechish sifatida ifodalash mumkin, bu yerda ma‘naviy jihat ham kam ahamiyatga ega bo‘lmagan tarkibiy qism hisoblanadi. Odatda har qanday mehnat taqdirlanishi lozim, deb hisoblash odat bo‘lib qolgan. Biroq ish uchun har doim ham pul yoki ko‘rinarli qadriyatlar mukofot bo‘la olmaydi. Zamonaviy dunyoda boshqalarga hech qanday moddiy foydaga umid qilmasdan, tamomila ixtiyoriy ravishda yordam berishga tayyor bo‘lgan odamlarning alohida toifasi mavjud. Bu kabi ko‘ngillilarni volontyor deb ataydilar.

### **ASOSIY QISM**

Ixtiyoriy ravishda va beg‘araz yordam ko‘rsatishga intilgan odam volontyor deb ataladi. Volontyorlar o‘zi kim va ular nima bilan shug‘ullanishlarini gazetalardagi maqolalar va hozirgi zamon ijtimoiy tarmoqlaridan bilib olish mumkin. Shaharlarning doimiy ravishdagi moliyaviy yetishmovchiligi bilan bog‘liq ravishda, ushbu OAV ko‘pincha odamlarni o‘z shahriga beg‘araz yordam ko‘rsatishga chaqiradilar.[2]

Bu o‘z kuchlari va vaqtlarini ixtiyoriy ravishda jamiyat yoki muayyan inson foydasiga sarflashga tayyor bo‘lgan insonlardir. “Volontyor” so‘zining sinonimi “ko‘ngilli” so‘zi hisoblanadi. Ayrim vaqtlarda volontyorlarni ijtimoiy yordamchilar, shtatdan tashqari ko‘ngilli xodimlar, yordamchilar, yetakchilar, vositachilar deb ataydilar. Ularni birlashtiruvchi umumiylik – ko‘ngillilik demakdir (pul ishning asosiy sababi hisoblanmaydi). Nomlardagi farqni asosan ular o‘z faoliyati davomida qo‘llaydigan metodikalar belgilab beradi. Volontyor – bu har qanday jismoniy shaxs, jumladan, volontyorlik faoliyatiga asoslangan holda volontyorlik faoliyatini amalga oshirgan va volontyorlikni rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardir [3].

Yoshi 13 dan katta bo‘lgan har qanday inson volontyor bo‘lishi mumkin (biroq istisnolar ham bo‘lishi mumkin, kichik yoshdagi bolalar ham volontyor bo‘lishlari mumkin). Aytish mumkinki, volontyor bo‘lish uchun hech qanday yosh chegarasi mavjud emas.

To‘rtta guruh volontyorlik faoliyatida o‘zini juda yaxshi tomondan namoyon qiladi:

1. Katta sinf o‘quvchilari, kolledjlar (kasbiy ta‘lim muassasalari) o‘quvchilari;
2. OTM talabalari;
3. Tibbiyot xodimlari, psixologlar, pedagoglar, ijtimoiy xodimlar, sotsiologlar;
4. Ijtimoiy tashkilotlar xodimlari.

Yuqorida sanab o‘tilgan toifalardan tashqari quyidagilar ham potensial ravishda volontyor bo‘lishlari mumkin:

Qarindoshlar, tanishlar, do‘stlar;

Qarindoshlarning, do‘stlar va tanishlarning do‘stlari;

Axborot kompaniyasi doirasida taklif etilgan yoshlar, o‘smirlar va yoshlar klublarining ishtirokchilari [4].

Biz yuqorida volontyorlik faoliyatini qay darajada ommalashib borayotganini bilib oldik. Endi esa volontyorlik faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'lgan tamoyillar to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Ular quyidagicha tavsiflanadi.

- Kirishimlilik

Mashg'ulotni guruh bilan oddiy muloqot shaklida olib borish va natijada qo'yilgan maqsadlarga erishish – aynan shu guruhni samarali boshqarish demakdir. Boshlovchining nutqi ravon, tushunarli va toza, parazit so'zlarning ishtiroki minimum darajaga tushirilgan bo'lishi lozim. Maqsadli guruh slengini bilish, har qanday so'zning sinoimini maksimal darajada tez topish ko'nikmasi zarur. Gapirish uslubi sokin, shu bilan birga tezkor bo'lishi zarur. Harakatlarga boy bo'lishi, biroq kung-fuga o'xshash bo'lmasligi, tana tili esa – ifodali (bunda tana shakli hech qanday rol o'ynamaydi) bo'lishi lozim. Har doim xo'shshaygan emas, balki, xushchaqchaq inson bilan muloqot qilish yoqimli. Agar siz zaif eshituvchi bo'lmasangiz kirishimlilikni rivojlantirish imkoniyati yuqori.

- Vijdonlilik

Boshlovchining eng asosiy xislati – bu vijdonlilik. Bu ma'naviylik, insoniylik, axloqiylik kabilarni qamrab oluvchi kompleks tushuncha demakdir. Ushbu xislatlarsiz boshlovchi manipulyatsiya qiluvchiga, dasturning rasmiy ijrochisiga aylanib qoladi.

- Ijtimoiy faollik

Agar sizda volontyor bo'lish istagi shakllanib ulgurgan bo'lsa, u holda siz volontyor uchun birinchi navbatda, eng zarur bo'lgan xislat – ijtimoiy faollik xislatiga egasiz. Va aynan sizning o'z atrofingizdagi dunyoni o'zgartirish istagingiz, atrof voqelikka oqilona munosabatingiz sizda ko'ngilli bo'lish ehtiyojini keltirib chiqargan. Biroq ijtimoiy faollik – bu volontyor bo'lishga qaror qilgan kishining yagona xislati emas. Ko'ngillilikni amalga oshirishning imkoni bo'lmagan boshqa fazilatlar ham mavjud.

- Altruizm

Altruizmsiz volontyorlik umuman mavjud bo'la olmaydi. Sizda boshqa bironing farovonligi va manfaatlarini o'zingiznikidan ustun qo'yish imkonini beruvchi altruizm bormi? Axir o'z vaqtingizni yordamga muhtoj keksaga sarf qilgan holda, bolalar uyi yoki saratonga chalingan bolalar bo'linmasiga borgan holda siz faoliyatning pul olib keladigan boshqa turiga sarflashingiz mumkin bo'lgan vaqtingizni sarf qilasiz. Yoki oddiygina boshqa odamlar kabi vaqtingizni chog' o'tkazishingiz mumkin.

- Tolerantlik va sabrlilik

Ular doimo yonma-yon yuradi – tolerantlik, sabrlilik. Axir volontyor boshqa odamning qarashlarining qadri ekanligini, bu qarashlar unga hattoki yot bo'lsa ham, tan ola bilishi lozim. Volontyorlik yordamiga tamomila turli tuman guruhlariga mansub kishilar muhtoj bo'ladilar. Volontyorlik sohasida birga ishlashga to'g'ri kelishi mumkin bo'lgan har bir insonga hurmat, ezigulik, yoqtirish, sabrlilik, bosiqlik, boshqa bironni tushuna olish qobiliyati – bularning bari tolerantlik demakdir.

- Empatiya

Siz empatiya kabi xislatga egamisiz? Siz bolalarga nisbatan hayrixoh, ziyrak va ularga nisbatan g'amxo'r bo'la olasizmi, siz o'zingizni bolaga teng ko'rib uning tashvishlarini bo'lisha olasizmi, ularni xavotirga solayotgan muammolarga o'g'il bola yoki qiz bola ko'zlari bilan boqa olasizmi? Sizning bolaga bergan vadangizga sodiqligingiz, hissiy ta'sirchanlik – bu volontyorlik faoliyatini amalga oshirishda muhim o'rin tutgan empatiya demakdir.

- Mas'uliyat

O'zi va boshqa odamlar uchun ma'naviy mas'uliyatni his qilmasdan turib, volontyor bo'lib ishlash imkoni mavjud emas. Mas'uliyat – bu yordamga muhtojlarga yordam ko'rsatish istagi, bu kimningdir og'rig'ini o'z og'rig'i sifatida qabul qila olish qobiliyati, bu rahmdillik va insoniylikdir.

- Kommunikativlik (aloqaga kirisha olish qobiliyati)

Volontyorlikda kommunikativ mahorat boshqa har qanday faoliyat turidagidan ko'ra ko'proq zarur. Aynan muloqot jarayonida volontyor va volontyor yordamga kelgan inson o'rtasida ko'zga

ko‘rinmas bir bog‘liqlik paydo bo‘ladi. Bu xoh keksa bo‘lsin xoh bola. Siz muloqot qila olasizmi? O‘zingiz ko‘rishga kelgan odam bilan do‘st bo‘la olasizmi?

- Hayrixohlik

U muloqot qilayotgan har bir kishi, uning o‘ziga nisbatan yaxshi munosabatda ekanligiga ishonch hosil qilishi lozim. Auditoriya bilan “kurashish” umuman mumkin emas, volontyor har qanday usullarni qo‘llagan holda nizodan qochishi lozim. Va albatta, atrofdagi odamlar volontyorning o‘ziga bo‘lgan hurmatini his qilib turishlari lozim;

- e‘tiborli va xushmuomala. U o‘zining shaxsiy simpatiya va antipatiyalariga qaramasdan har bir kishiga e‘tibor qaratishi lozim. Biroq taklifsiz birovning hayotiga, uning boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlariga, uning ichki dunyosiga kirmaslik zarur. Ushbu taklifga loyiq bo‘lish lozim;

- talabchan. Agar talablar oqilona bo‘lsa, talab qilishdan qo‘rqmaslik lozim. “O‘ta marhamatli” volontyorlarning obro‘si juda past;

- adolatli. Boshqalarda ham sizning qarashlaringiz mavjud ekanligini yoddan chiqarmaslik zarur. Volontyorning o‘zining qilayotgan ishlari to‘g‘ri va adolatli ekanligiga ishonishi yetarli emas, opponent ham buni tushunishi lozim. Uni bunga ishontirish zarur;

- samimiy va halol.

- Ijtimoiy ta‘sirchanlik.

Boshlovchining yana bir muhim xislati ijtimoiy ta‘sirchanlik hisoblanadi. U boshqa odamlarning holati, ularning hissiyotlari va kechinmalarini his qilishni, boshqa odamlarga qayg‘udosh bo‘lishni taqozo qiladi. Ijtimoiy ta‘sirchanliksiz boshlovchining munosabati quruq, o‘ta rasmiy bo‘ladi va u hattoki manipulyatsiya qilishga moyil. Guruh a‘zolarining kiyimiga nisbatan o‘ta qimmat kiyimlarni kiyish to‘g‘ri emas, aks holda sizning «Wrangles» firmasida ishlab chiqilgan djinsi shimingiz «Tom Ford» atiringiz bilan birgalikda unchalik boy bo‘lmagan auditoriyaning g‘ashini keltiruvchi omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin [5].

“Ko‘ngillilik ham ma‘naviy xislat, ham fuqarolik fazilati hisoblanadi. Bu – inson ma‘naviyatida chuqur ildizlarga va uzoq kelajakka singib ketuvchi ijtimoiy va madaniy oqibatlariga ega bo‘lgan faoliyatdir. Boshqalarning ehtiyojlariga quloq tutish, ular to‘g‘risida qayg‘urish, yordamga kelish – bularning bari oliy insoniy xislatlar ifodasidir. Odamlar bir birlariga mehr va hamdardlik sababli yordam beradilar” [6].

Volontyor – bu beg‘araz ishlagan holda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni amalga oshirishga o‘z hissasini qo‘shishga intilgan insondir. Djon Xopkins universiteti tomonidan chop etilgan “Ko‘ngillilar – bebaho manba” o‘quv qo‘llanmasida volontyorlikda onglilik hissi alohida ta‘kidlab o‘tilgan. “Volontyorlik – bu boshqalarning manfaati yo‘lida haq to‘lanmaydigan, ongli ravishdagi, ixtiyoriy faoliyat. Boshqalarning manfaati uchun ongli ravishda va beg‘araz yordam ko‘rsatish uchun mehnat qiladigan har bir inson volontyor, deb atalishi mumkin”.

Biz maxsus dastur bo‘yicha o‘qigan va profilaktik faoliyatni (treninglar o‘tkazish, ommaviy aksiyalarni, stansion o‘yinlarni tayyorlash va o‘tkazish, poligrafik mahsulotlar va boshqalarni ishlab chiqishda ishtirok etish) amalga oshirishga yordam beruvchi noprofessional ko‘ngilli yordamchilarni volontyorlar, deb ataymiz.

Asosiy xususiyatlar:

- Insonning yoshi, jinsi, ma‘lumoti, dinidan qat‘iy nazar u bepul ishlaydi;
- Birovning tayziqisiz faoliyat olib boradi;
- Shaxsiy manfaatga (sababga) ega;
- Faoliyat yo‘nalishini erkin tarzda tanlaydi;
- Jamiyat farovonligi uchun mehnat qiladi [7].

Jahon hamjamiyati rivojlangani sari insoniyat hayotida ijtimoiy sohalar soni ortib bormoqda bu esa turli sohalarida volontyorlik faoliyatining yo‘nalishlari paydo bo‘lishiga turtki bo‘lmoqda. Hozirgi kunda volontyorlik faoliyatining qator yo‘nalishlari mavjud. Ular quyidagilar:

Ijtimoiy volontyorlik, bu volontyorlikning eng mashhur turi. Bu yolg‘iz faxriylarga, bolalarga yordam, odamlarning ijtimoiy himoyalangan deb nomlanuvchi toifasi bilan ish olib borish

demakdir. Ijtimoiy volontyorlik – bu tarixdan shakllangan yo‘nalish. Bugungi kunda juda ko‘p hayriya fondlari va volontyorlik tashkilotlari aynan ijtimoiy volontyorlik bilan shug‘ullanadilar.

Vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan volontyorlik - tarixiy xotirani tarbiyalash va saqlashga yo‘naltirilgan ko‘ngillilik faoliyati.

Sportga oid volontyorlik – o‘ziga xos farqlarga ega, chunki, bu holatda volontyorning alohida ko‘nikmalari muhim, masalan, chet tilini bilish, chunki, ko‘pincha sport hodisalari musobaqalarda turli mamlakatlarning ishtirokini taqozo qiladi. Bu sportning muayyan turini bilish, ayniqsa bu sportning muayyan turiga bag‘ishlangan chempionatdagi volotyorlik bo‘lsa. Bu qandaydir tolerantlik (bag‘rikenglik), dunyoga ochiqlik, turli odamlar bilan muloqot qilish istagi.

Madaniy volontyorlik - madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan ko‘ngilli faoliyat, madaniy maydonlarning ochiqligi va ommaviyligi muhitini yaratish, madaniy tenglikni shakllantirish, madaniy muhitni yoshlar orasida ommalashtirish va tarixiy xotirani saqlash.

Ekologik volontyorlik – bu nafaqat tabiatni uni klassik anglashda saqlash, balki, flora va faunani himoya qilish ham demakdir. Bu megapolis ekologiyasi. Bu ayniqsa yirik shaharlarga xos. Bu yerda ma‘rifatparvarlik faoliyati, aksiyalar, loyihalar haqida ham gapirish mumkin; ekologik volontyorlik bilan tizimli ravishda shug‘ullanuvchi jamg‘arma va tashkilotlar mavjud.

Profilaktik volontyorlik – sog‘lom turmush tarzi, sportni targ‘ibot qilish, salbiy holatlar, zararli odatlarning oldini olishga yo‘naltirilgan ko‘ngillilik faoliyati.

Donorlik. Ko‘pchilik donor bo‘lishni xohlaydilar va donorga aylanadilar. Biroq agar donorlikni faqatgina qon topshirish emas, balki, ma‘rifat kabi ulkan bo‘g‘imni volontyorlik, deb hisoblaydigan bo‘lsak, u holda bu yerda volontyorlar juda zarur. Odamlar predmetni tanib uni tushuna boshlaganlarida, ular unga boshqacha munosabatda bo‘lishni boshlaydilar. Bizda juda ko‘p holatlarda odamlar donorlikdan qo‘rqishlari, yoki u haqda umuman bilmasliklari sababli donorlar yetishmaydi.

Voqealarga oid volontyorlik yoki event-volontyorlik. Bu yirik voqeliklarda – festivallarda, forumlarda, qandaydir yirik loyihalarda, masalan, shahar kuni kabi tadbirlarda ishtirok etuvchi volontyorlardir.

Korporativ volontyorlik – bu birinchi navbatda o‘z xodimlarini ishdan tashqari vaqtda jalb qilgan holda ko‘ngillilik faoliyatiga kirishishga tayyor kompaniyalar bilan bog‘liq. Bu umuman ko‘ngillilik, volontyorlik harakatini ommalashtirish, hayriya fondlarini qo‘llab-quvvatlash nuqtai nazaridan juda muhim yo‘nalish hisoblanadi. Va kompaniyaning xodimlari ular nafaqat ko‘ngillilik, volotyorlik faoliyatini olib borayotganliklari, balki, qandaydir ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan vazifani bajarayotganliklarini anglashlari muhim jihatdir. Axir insonning mazkur ijtimoiy ehtiyojini har doim ham “sir saqlash” mumkin emas. Agar kompaniya sizga peshvoz chiqsa va korporativ volontyorlikni rivojlantirishga tayyor bo‘lsa, bu albatta zo‘r-ku!

Tashkilotga volontyorlar nima uchun kerak?

Har bir tashkilotning o‘ziga xos xususiyati mavjud, biroq quyidagilarni alohida ta‘kidlab o‘tamiz:

- Ijtimoiy rag‘bat volontyorlik tashkilotining imidji (jozibadorligi) ni oshiradi;
- Moliyaviy muammolarning bir qismi ko‘ngillilar hisobiga hal etiladi;
- Tashkilotning muloqot doirasi kengayadi;
- Jamoatchilikning tashkilot tomonidan hal etilayotgan muammolarga bo‘lgan e‘tibori ortadi;
- Malakali professional xizmatlar (vrach, xuquqshunoslarning maslahatlari);
- Tashkilot faoliyatiga jalb qilingan insonlarning soni ortadi;
- Maqsadli guruh e‘tiborini salbiy harakatlardan chalg‘itadi.

Ijtimoiy xavfsizlik volontyorlari – bu ham tor doiradagi, o‘ziga xos yo‘nalish. Afsuski, mazkur volontyorlik yo‘nalishi to‘g‘risida yetarli darajadagi fojiali hodisalardan: suv toshqini, tabiiy ofat, tabiat kataklizmlaridan so‘ng hukumat darajasida ham gapirila boshlandi. Bu holatda, volontyorlar, ko‘ngillilar ular nimani maqsad qilganliklarini, nimaga rozi bo‘layotganliklarini, nimaga tayyorgarliklarini, bilishlari o‘ta muhim. Ijtimoiy xavfsizlik volontyorlarini tayyorlovchi

maxsus dasturlar mavjud. Ular aslida “akkreditatsiya” rolini o‘ynaydi va volontyor “Ha, men qanday qilib birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishni bilaman. Men suv toshqini sodir bo‘lganda nima qilishni bilaman. Men yong‘in sodir bo‘lganda nima qilishni bilaman”, deb ayta olishi mumkin. Biroq shu bilan birga har doim bevosita fojea sodir bo‘lgan joyda emas, balki, qo‘shimcha tadbirlar yordamida his qilish imkoniyati mavjud. Masalan, gumanitar yordam to‘plash, agar volontyorlar omborxonada ishlasa – narsalarni qadoqlaydi, saralaydi va h.k. Bu ham volontyorlik faoliyatining ijtimoiy xavfsizlik nuqtai nazaridan juda muhim qismi hisoblanadi, chunki, bu kabi yordam tashkilotchilarning ishini yengillashtiradi.

Media-volontyorlik. Bilim, ko‘nikma va malakalarga ega inson boshqa odamlarga volontyorlik haqida gapirib berishi uchun qo‘llashi mumkin. Bu fotograflar, jurnalistlar, ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo‘lgan odamlar, dizaynerlar. Ular yordam olayotganlarga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘l ostidagilarga emas, balki, aynan volontyorlik faoliyatining tashkilotchilariga volontyorlik markazlariga, hayriya fondlariga, ko‘ngillilar volontyorlik harakatlariga yordam ko‘rsatadilar. Bugungi kunda bu holat juda ommalashdi, va media-volontyorlik kabi yo‘nalish mavjudligi to‘g‘risida qo‘rqmasdan gapirish mumkin.

Tibbiy volontyorlik – sog‘liqni saqlash sohasida tibbiy yordamning barcha, profilaktik, davolash, reabilitatsion bosqichlarida tibbiy yordam sifatini oshirishga yo‘naltirilgan ko‘ngillilik faoliyati.

Inklyuziv volontyorlik – nogironligi mavjud bo‘lgan va bo‘lmagan odamlarning odamlarga yordam ko‘rsatish, jamiyatning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan tadbirlarni tashkillashtirishga yo‘naltirilgan o‘zaro hamkorlikdagi ko‘ngillilik faoliyati [8].

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonda volontyorlikka keng imkoniyat yaratish orqali uni hamma bilishi kerak bo‘lgan muhim ahamiyatga ega, yosh tanlamaydigan umuminsoniy harakatiga, jamiyatning muhim elementiga aylantirish zamon taraqqiyotning mumim talabidir. Uning asosiy maqsadi jismoniy va yuridik shaxslarga, jamiyatga yordam ko‘rsatish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirlarda ularni tashkil etuvchilarning roziligi bilan ishtirok etish, jamiyatda fuqorolik nuqtai nazarini, o‘zini o‘zi tashkil etishni, ijtimoiy mas‘uliyat, birdamlik, o‘zaro yordam berish va rahm-shafqat tuyg‘ularini shakllantirishdan iboratdir. Volontyorlik faoliyati davlat va jamiyat ravnaqi yo‘lida bir qator ijobiy vazifalarni bajaradi. Bu esa insonlar o‘rtasida mehr-muruvat va yaxshilik fazilatlarining abadiy bo‘lishiga hizmat qiladi.

## Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. “Volontyorlik” bo‘yicha qo‘llanma. Matn: Uslubiy qo‘llanma /mualliflar jamoasi.-Toshkent: Zarvaraq nashriyoti, 2021. – 56 b.
2. Ganieva Marifat Xabibovna, Latipova Nodira Muxtarjanovna, Qayumov Qahramon Nozimjonovich, Ahmedov Qahramon Abdulxamid o‘g‘li. Volontyolar uchun trening. Uslubiy qo‘llanma – Toshkent.: O‘zMU 2020. – 104 b.
3. «Orzular ushaladi» jamg‘armasi,  
[http://www.japanese-page.kiev.ua/rus/help\\_the\\_project\\_who\\_are\\_volunters.htm](http://www.japanese-page.kiev.ua/rus/help_the_project_who_are_volunters.htm)
4. Zapisnaya knijka volontera. — Ufa: Alfa-reklama, 2014. – 92 s.
5. Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh assambleyasi rezolyusiyasi A/RES/56/38 (2001g.)
6. “Ko‘ngillilar – qadrli manba qo‘llanmasidan. – Moskva Olchman, – P. Djordan. Djon Xopkins universiteti, 1997.
7. Perm hududiy xuquqni himoya qilish markazi (PRPS),  
[http://www.prpc.ru/met\\_nko/060613\\_1.shtml](http://www.prpc.ru/met_nko/060613_1.shtml).
8. Ilin Ye. P. Rag‘bat va sabablar / Ye.P. Ilin. – SPb.: Piter, 2011. – 413 b.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-1

MAQOLADA KELTIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000